



Raqamli asr: Texnologiya jamiyatni kitob o'qishdan uzoqlashtirishda qanday ahamiyat kasb etmoqda

Zokirova Fotima Sheraliyevna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Student of faculty of Foreign Languages

Email: fzokirova80@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi raqamli asrda, internet kundalik hayotimizning asosiy qismiga aylanib ulgurganini inkor etolmaymiz. Elektronik qurilmalar- telefonlar, planshetlar va noutbuklarning rivojlanishi bois, ko'p kishi ma'lumot olish, hordiq chiqarish va ijtimoiy muloqot uchun internetni tanlovlari listining yuqori pog'onasiga qo'yishlari odatiy holga aylanib ulgurgan. Natijada, kitoblarning o'rni media shuhrati kontentining orqasida qolib ketmoqda. Inson tanasi xuddi ijtimoiy ehtiyojlarga (masalan oziq-ovqat, kiyim-kechak, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, oila qurish, yashash uchun sharoit va joyga va h.k) muhtoj bo'lganidek, bilimga va ma'naviy-madaniy dunyoqarashga ham bizning miyyamiz ehtiyoj sezadi.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, sun'iy intellect, rivojlanish, ijtimoiy media, kommunikatsiya, ijobiliy va salbiy jihatlar, sabablar, ilhomlashtirish, ma'lumotlar.

Kirish: Maqolada insonlarning tobora internet tarmog'I, ijtimoiy vositalarga berilib, kitob o'qishdan uzoqlashish sabablari, internetning foydali va zararli jihatlari hamda kitob o'qishning bir qator foydalari (bulardan, kitob internet ulashayotgan ma'lumotlarni bera olishi mumkinligi, sababi, "Kitob kitoblarga tayanib yaratiladi",-degandek, [1] internetdagi ma'lumotlar ketma-ketligi ham kitoblardan olinishi, kitob o'qishdagi estetik zavq va yana bir qator foydali tomonlari) va kitob o'qishni internetdan oldin qo'yish, sog'lom fikrlashga va sog'lom turmush tarziga ergashishga undovchi bo'lgan fikrlar yoritilgan.



Asosiy qism: Albatta biz internetni va ijtimoiy hayotni butunlay inson hayotida salbiy o'rni bor ham deya olmaymiz, lekin shu qatorda butunlay ijobiy rol o'ynaydi ham deyish xato. Kundalik hayotimizdagi internet va sun'iy intellekt mahsullarining tobora rivojlanishi va deyarli hech qaysi ishimizni ularning yordamisiz qila olmasligimiz ham mubolag'a emas. Texnologiyalar rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ba'zi ijobiy tomonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yaxshilanish va faollik: Yangi texnologiyalar jarayonlarni tezlashtirish, vazifalarni avtomatlashtirish va har xil sohalar bo'yicha umumiyligi faollikni oshirishga har sohada imkon beradi. Menimcha bu o'z navbatida iqtisodiyotning o'sishiga va mamlakatning mablag' jihatdan barqarorligiga olib keladi.

2. Kommunikatsiya rivojlanishi: Smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar va video konferensiylar kabi texnologiyalar kommunikatsiyani revolyutsionlashtirib, odamlarning global darajada bir-birlariga ulashishini osonlashtiradi. Bugungi kunda uzoq masofadagi yaqinilarimiz bilan qiyinchiliklarsiz bog'lanishimiz g'ayritabiyy emas. Bundan tashqari, nafaqat ish faoliyatida hodimlari balki mamalakatlarning ham o'z qulay sharoitlarini tark etmagan holatda majlis va konferensiylar o'tkazishlari katta qulaylik. Ayniqsa, 2019-yilda boshimizdan o'tkazgan korona virusi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Boshqa so'z bilan aytganda,

3. Ma'lumotga murojaat: Internet keng ma'lumotlar miqyosida, aloqada bo'lgan har bir odam uchun ma'lumotlarni tez yetkazishni ta'minlaydi, bu esa oson tadqiqot va o'rganishga imkoniyat beradi. Menimcha, internetning eng yaxshi va foydali taraflaridan biri ham shu, chunki siz ma'lum tadqiqotlarni olib borayotganingizda bir dunyo kitoblarni oldingizga qo'yib, kuni bo'yi sizga kerakli qismni yoki ma'lumotni turli kitoblardan qidirishdek mushkul vazifadan shunchaki google yordamida ozod bo'lasiz.

Tanganing ikki tarafi bo'lganidek, texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq salbiy va inkor etib bo'lmaydigan jihatlar ham mavjud:



1. Ish joyidan chiqarilish: Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt ish joylarida insonlar amalga oshiruvchi qator vazifalarni bajarishi, qisqacha qilib aytganda, inson o'rnini mashina egallashi oqibatida insonlar o'rtasida ishsizlik kayfisentining oshishiga sabab bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Bu o'z navbatida menimcha, mamlakat iqtisodiyotini susaytiradi.

2. Maxfiylik muammolari: O'sayotgan darajadagi texnologiyalar shaxsiy ma'lumotlarning o'zlashtirilishi, kiber hujum va xavfsizlik masalalari o'rnatish holatlariga sabab bo'lishi mumkin, chunki shaxsiy ma'lumotlar razillik istagi bilan to'plangan va ma'lum maqsadlarda boshqa insonlar yoki davlatlarga yetkaziladi.

3. Ekologik va biologik ta'siri: Elektron qurilmalarga ehtiyoj ortishi bilan, ularni ishlab chiqarish soni ham ortadi. Agar ular muvafaqqiyatli yo'llarda boshqarilmasa, ikki turdag'i zararni keltirib chiqaradi: birinchisi-telefondan tarqalayotgan zararli nurlar natijasida inson ko'z ko'rish qobiliyati susayishi; nafaqat insonlar balki tabiatdagi migrant qushlarning miyasiga signal yetib, yo'ldan adashishlari bo'lsa, ikkinchisi-internet sifatini oshirish maqsadida tabiatdan ma'lum turdag'i homashyolarning olinishi sababida tabiatdagi resurslarga sezilarli ziyon yetkazishilishi mumkin. Bu kelajak avlodlarimizning ma'lum resurslarga ehtiyoj sezishi va qiynalishiga sabab bo'ladi, chunki qimmatli homashyolar tabiat kuchida, inson omilisiz yillar davomida shakllanishi sir emas.

4. Uzoqlik: Insonlar muntazam internetga bog'lanib qolishi bilan ular tashqi olamdan uzilib qolishadi. Yaqinlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish, ularning sizga bo'lgan munosabatlarini, hislarini his qilish-bu tasvirlab bo'lmaydigan insoniylik hissiyotlari va menimcha bunday ajoyib hissiyotlarni manaman degan boylar ham sotib ola olmaydi. Yaqinlardan habar olishning o'zi ular bilan telefondagi muloqotdan ko'ra ko'proq insonga qancha baxtni tuhfa eta olishini tasavvur qilib ko'ring-a!. Buning ustiga, bunday insonlarda jismoniy faoliyat kamligi bois turli kasalliklar ta'qibida bo'lishadi.



Nima uchun raqamli texnologiyalar insonlarni o'ziga tez jalg qila olish qobiliyatiga ega? Bu savolni ochib berish uchun yuqori sanab o'tilgan internetning zararli taraflarini mantiqiy davomi sifatida bir qancha faktlar mavjud. Ijtimoiy media, rangli tasvirlar, videolar va interaktiv xususiyatlar bilan vizual ravishda e'tiborni jalg qilish uchun dizayn qilingan; bu- kitob o'qishga nisbatan ko'proq vizual ravishda ta'sirchan. Qo'shimchasiga, ijtimoiy media platformalari foydalanuvchilarga mos keladigan va qiziqtiruvchi kontentni ko'rsatish uchun algoritmalar ishlatadi, bu ularning diqqatini uzoq muddatga ushlab qola olishi mumkin. Bundan tashqari, odamlar tabiiy ravishda ijtimoiy aloqa va boshqa insonlar bilan bog'lanishga qiziqishi bor, bu ijtimoiy media orqali "like", "izoh" va "baham ko'rish" orqali ta'minlanadi. Ushbu doimiy aloqa tarmoqlarida insonlarni qiziqishi uchun qo'llanilib, o'zidan chetga chiqmasligini kafolatlash uchun xizmat qiladi. Facebook, Instagram va YouTube kabi platformalar soatlar davomida ko'ngilocharligi va muloqot imkoniyatini ta'minlashi kitob bilan ottiriladigan zavqdan ko'ra ko'proq e'tiborni o'zida ushlab qoladi. Albatta, bu faoliyat daromat orttirish maqsadida ko'zlangan bo'lsada, yaratilinish vaqtida yomonlikni ko'zlamagan, menimcha.

Notifikatsiyalar va yangilanmalar doirasida doimiy xabarlar ketganda FOMO (nimani topolmaymanlik qo'rquvi) hissiyatini yaratadi, insonlarni onlayn aloqa saqlashga majbur etadi. Qarshi holatda, kitob o'qish uchun hikoya bo'yicha yo'l to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatib borish uchun ko'proq ma'naviy kuch ishlatish va tarkibni tushunishni talab etadi. Unda ijtimoiy media taklif etyoqgan tezlik va doimiy stimulyatsiya mavjud emas. Ammo, internetda vaqtini o'tkazib, hali donishmand yoki olim bo'lgan odam yo'q. Dunyo olimlari va butun dunyo taniydig'an shaxslar bilim kuchi bilan hozir band qilib turgan pog'onasidalar. Ularning interviyulariga qaralsa, hammasida kundalik reja bo'lgani va kitob o'qiganligi tufayli shu darajaga erishganligini sabab qilib ko'rsatadi, kitob o'qishga targ'ib qiladi. "Men kimdir televizorni yoqqanida, boshqa xonaga o'tib kitob o'qiymen", -degan ekan Groucho Marx. [2]. Rivojlangan davlatlar aholisining bilim salohiyati va ahlligi bilan



rivojlangan maqomini oladi, chunki ko'p islohot va yangiliklar inson tafakkuri yordamida hosil bo'ladi. Tafakkur bevosita insonning ma'lum bilimlarni egallashidan hosil qilinadi; uning kuchi yodamida yaratilgan mahsullar esa inson hayotining yengillashuviga yetaklaydi.

Kitob o'qish insonning dunyoqarashini o'stiradi, kamolotga yetkazadi, haqni tanitadi, to'g'ri ma'lumotni yolg'onidan farqlashga o'rgatadi, inson qancha o'qigani sari o'zi sezmagan holda dunyoqarashi oshib boradi. Jozef Addison: "Kitob o'qish-miyyaning mashqi", -deb ta'kidlagan [3].

Insonlarni qanday qilib kitob o'qishga ilhomlantirish mumkin? Eng samarali yo'l bu- insonlarning o'zlari va hayotga nisbatan dunyoqarashlarini o'zgartirish. Kitob o'qishning qator foydalari mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasini sanab o'tilgan:

1. Ma'naviy stimulyatsiya: Kitob o'qish miyyani shug'llantiradi va kognitiv funksiyalariningizni- xotirani va diqqatni yaxshilashi mumkin.

2. Bilim kengaytirish: O'qish, turli mavzular bo'yicha yangi ma'lumotlar, haqiqatlar va ko'nikmalarni o'rganishga imkon beradi. Aslida esa "Insonlarga ularning fikrlari yangi emasligini isbotlashing uchun ham kitoblar kerak", -degan, Avram Linkolen [4]. Dunyoda deyarli hamma narsa yaratib bo'lingan va yangilik qilish mushkuldek, chunki faqat bor narsalarnigina rivojlantiryapmiz holos. Bundan tashqari ko'p kitob o'qigan odamning har bir voqeа-hodisa va statementlar uchun o'z shaxsiy fikrga ega bo'ladi. Bu ertangi kunda kitobxonni ergashuvchi emas, ergashtiruvchi, lider sifatida shakllanishiga yordam beradi.

3. Stressni kamaytirish: O'qish, har kuni hayotdan qochishga yordam beradi va dam olishga imkon beradi. Inson kitob o'qishni boshlaganda, uning miyyasi tinchlanishni boshlaydi. Mason Koley: " Kitob o'qish bizga o'tirgan joyimizda turli joylarga borishni bera oladi", -deydi [5]. Ya'ni har doim ham insonning sayohat qilishga qurbi yetmaydi, va ma'lum bir joy haqidagi ma'lumot va rasmlarni o'rganish bilan o'sha muhit atmosferasi haqida tushunchaga ega bo'la olish mumkinligi



aytilmoqda.yana bir misol: “Kitob o’qigan odam o’lmidan oldin ming hayotda yashaydi, o’qimagan faqat bir hayotda”, -deydi George R.R. Martin [6].

4. So’z zaxiralash: Muntazam o’qish yangi so’zlar va kontseptslar bilan tanishtiradi, bu esa so’z boyligining sezilarli kengayishiga yordam beradi. Inson so’zlayotganda ham so’zlarining o’z o’rnida bo’lishi, gaplarining ravon, lo’nda, chiroysi va tushunarli bo’lishini ta’minlaydi.

5. Emtioxorlik va tushunchalar o’stirilishi: Asar va hikoyalarni o’qish, turli ko’rinishlarni tushunib chiqarib empatiyani yaxshilashi mumkin. Ba’zi hollarda asardagi, she’rdagi asl ma’no yashirin bo’ladi. ishlatilingan so’z o’yinlarini anglashga poydevor bo’ladi. Bunga yaqqol misol bu- “O’tgan kunlar” asari. Asarda Otabek va Kumushning bir-biriga bo’lgan muhabbatni tasvirlash davomida o’sha davrda kechayotgan siyosiy jarayonlarni olib berish ko’zda tutilgan.

6. Diqqatni yaxshilash: O’qish fokus va diqqat talab qiladi, bu esa vaqt o’tishi bilan diqqatingizni yaxshilashda yordam berishi mumkin.

7. Zavq: Kitob o’qish orqali estetik zavq olish mumkin. Biron sahnadan o’quvchining shodlik olishi, qayg’urishi, voqeaviylik rivojini kutishi kabilar shu jumladan.

Asl zamirida kitobga muhabbat uyg’otish va kuchli bilim sohiblari sifatida shakllantirish bo’lgan, o’quvchilarga yoshlik davridan kitob ulashish, kitob ko’rgazmalari va kutubxonalarni ko’paytirish orqali ularda dastlabki kitobsevarlik ruhiyatini paydo qilib, shu ruhiyatda tarbiyalash orqali raqamli dunyoda kitob qiymatini yaratish mumkin. Albatta, bu o’rinda kitoblarning sifati va o’quvchi yoshiga hamda zamon talabiga javob beruvchi resurslarni yaratish maqsadga muvofiq. Oila jamoatning kichik bo’g’ini, jamiyat esa davlatning; jamiyat ruhini rivojlantirish va insonlarni kitobni o’qishga ilhomlantirishda oila va ota-onaning roli ham muhim kasb etadi.Qo’shimchasiga, tashkilotlar va kutubxonalar ko’proq reklamani kuchaytirish va jamiyat ongiga ilmning asl mohiyati, hayotimizda tutgan o’rnini chuqur tushuntirish chora-tadbirlarini ko’rish orqali literaturani rivojlantirish



imkoniyati mavjud. Jalb qilish yo'llaridan yana biri-kitobxonlar o'qigan foydali xususiyatlarini (yaxshilashgan kognitiv funksiyalar, kamaygan stress darajasi va oshib ketgan empatiya) rag'batlantirish, ya'ni kitobxonlik musobaqalaridir. Hozirda rivojlangan texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda elektron kitoblar va ularning audiolarini ko'paytirish, kitobni sevishga, unga intilishga va unga bog'liq bo'lgan turli sayt va ilovalar yaratib, insonlar e'tiborini jalp qilish mumkin.

Xulosa, texnologiyalar tezlik bilan kitoblardan ko'ra ilgariroq rivojlanishi va onlayn kontentning o'sishiga qaraganda, kitob o'qishning doimiy qiymati va ahamiyatining pasayganini tan olish muhim. Internet soddalik va tezlikni taklif etadi, lekin kitoblar raqamli dunyoda takrorlanmagan bilim, nazariy fikrlash ko'nikmalari va hissiy aloqa ta'minlaydi. Internet orqali juda ko'p ishlarni bajarish mumkin. Asosiysi esa undan qanday foydalanishda. Shaxsiy o'sish, ijtimoiy aloqa va intellektual tenglik uchun kuchli vosita sifatida texnologik vositalarni ham inson bilimi orqali yaratayotganligini kitob o'qib anglay olamiz. Mening holis fikrim shundan iboratki, insonning sun'iy intellektlarga suyanib qolmasdan o'z harakatlari yordamida ko'proq kamolotga erishishga harakat qilishi har qanday texnologiya kuchidan anchagina yuksak va kuchli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mashhur ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Mirza Asadullah Aivazov "Ona tilim" asari va taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlarida ma'lum voqealarni ochib berishga qaratilinib tilga olingan.
2. Groucho Marx o'zining "The Groucho letters" asarida keltirgan.
3. Zyouz.com "Aforizmlar" asari.
4. Zyouz.com "Aforizmlar" asari.
5. Mark Tven - "Gekkelberri Finning sarguzashtlari"
6. Mark Tven - "The Adventures of Tom Sawyer" asarida.